MAKTABGACHA TA’LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA YECHIMLAR

Begmatova Nodira Xakimovna

Qarshi davlat universiteti “Algoritmlar va dasturlash texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
e-mail: 3171640@rambler.ru

KEYWORDS

kompyuter, ta’lim, texnologiya, tizim, innovatsiya, uslub, multimedia

ABSTRACT

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia texnologiyalarini foydalanishda uchrayotgan asosiy muammolar, ularning sabablari, hamda ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan samarali yechimlar bayon qilingan bo‘lib, bu ta’lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan mazmunli foydalanish va ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Hozirgi globallashuv va raqamlashuv sharoitida ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalanish bolalarning erta rivojlanishi, axborotni qabul qilish va o‘zlashtirish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia texnologiyalarini joriy etish, bu jarayonda multimedia texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarni o‘rganish va yechimlarni topish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib xisoblanadi.

So‘nggi yillarda raqamli pedagogika konsepsiyasi asosida maktabgacha ta’limda multimediadan foydalanish integrativ yondashuvni talab etmoqda. Xususan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqilgan “interaktiv o‘qitish muhiti” modeli bolalarning ko‘rish, eshitish va harakat orqali o‘rganish mexanizmlarini birlashtirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv kognitiv psixologiya nazariyalariga asoslanib, axborotni ko‘p kanalli qabul qilish orqali bilimni mustahkamlash samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasini joriy etishda pedagogik-psixologik asoslarni chuqur ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida ta’lim turlari sanab o‘tilib, uning birinchi turi – maktabgacha ta’lim va tarbiya ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, 8-moddasida: “ Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir”[1], - deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga “... maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon амалиётида кенг qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish”[2] - vazifalari belgilangan.

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-2707-son qarori. - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son.

©Begmatova Nodira Xakimovna

Yuqorida baën qilingan dalillardan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarini, jumladan, innovatsion texnologiya sifatida multimedia texnologiyasini tatbiq etish, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga kompyuter savodxonligi bilan tayyorlash, ularni kompyuter bilan elementar tarzda foydalanishga o‘rgatish va maktab ta’limiga tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Multimedia texnologiyalari (audio, video, animatsiya, interaktiv dasturlar) bolalarning diqqatini jalb qilish, bilimlarni ko‘rgazmali va tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi. Ular bolalarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi, o‘yin orqali ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalarini joriy etishdagi birinchi muammo maktabgacha ta’limga yangi pedagogik texnologiyalarini tatbiq etishdan iborat.

Hozirgi davrda multimedia texnologiyasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or va yangi texnologiyadir. To‘laqonli multimedia 1986 yilda yaratilgan bo‘lib, u o‘z ichiga bira to‘la matnli, tasvirli, ovozli, videoli, animatsiyali va grafikli ma’lumotlarni oladi.

Hozirgi kunda multimedia atamasi turli xil ma’noda qo‘llanilmoqda, masalan:

- turli xil axborotlarga ishlov berish tartibini yorituvchi;
- ishlov berish vositalarini qo‘llovchi va amalga oshiruvchi moslama texnologiyasi;
- qo‘llanish vositalari;
- multimedia texnologiyasiga asoslangan mahsulot;
- multimedia dasturi;
- kompyuterning apparat ta’minoti;
- axborotning umumlashtirilgan turi statik (matn, grafika) va dinamik (nutq, muzika, video, animatsiya) larniing umumlashtirilgan maxsus turi.

Rossiyada multimedia texnologiyasidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim jarayoninga tatbiq etish 1988 yildan boshlangan.


Vazifa: respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotilarning ta’lim-tarbiya jarayoniga multimedia texnologiyasini tadbiq etishga jiddiy e’tibor qaratib, rivojlangan davlatlar darajasiga yetib olishdan iborat. Buning uchun, shu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy-tatqiqot ishlarini rivojlantirish va respublikaning ilmiy salohiyatini ushbu yo‘nalishga qaratish zarur.

O‘zbekistonda ham 2000 yildan multimediadan uzluksiz ta’lim tizimida foydalanib kelinmoqda, ammo, maktabgacha ta’lim tashkilotilariga e’tibor yetarli darajada bo‘lmagan. Shu yillar ichida, mamlakatimizda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi muassasa tashkil etildi, multimediaga asoslangan elektron darsliklar va qo‘llanmalar ishlab chiqildi.Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasinig 2006 yil 7 iyundagi qaroriga asosan Xalq ta’limi vazirligi huzurida multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi tashkil etildi. Markaz bir nechta kasbiy darajada bajarilgan multimediali disklar tayyorlagan.

Ushbu multimediali diskni yosh bolalarga maxsus metodika va pedagogik texnologiyaga asoslanmasdan namoyish etish, bilim berish jarayonini aks ettira olmaydi, yosh bolalar ularni (didaktik vositalar) raqamlar va sonlarni ko‘rsatadigan multfilm deb qabul qiladilar. Shuning uchun, ushbu muammoni hal etish uchun dastlab, uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich turi – maktabgacha ta’limga mos bo‘lgan multimediaga asoslangan pedagogik-psixologik va ta’lim materialini o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish zarur.

(cc) BY ©Begmatova Nodira Xakimovna

ISSN: 3030-3346



1-rasm. Maktabgacha ta’lim jarayonida multimedia texnologiyasini joriy etish modeli

Yuqoridagi model maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasini samarali joriy etish bosqichlarini ko‘rsatadi. Model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Texnik ta’minot – kompyuter, planshet, interaktiv doska, proyektor va audio qurilmalar.

Dasturiy ta’minot – animatsion o‘yinlar, ta’limiy dasturlar, multimediali slaydlar.

Metodik ta’minot – yosh xususiyatlariga mos pedagogik yondashuv.

Pedagog tayyorgarligi – kompyuter savodxonligi va multimedia metodikasini bilish.

Natija – bolalarda bilish faolligi, ijodkorlik va mustaqil fikrlashning rivojlanishi.

Mazkur model asosida multimedia texnologiyasi ta’lim jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etilganda, uning samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Ma’lumki, 1950–1960-yillarda AQShda pedagogik texnologiyalar konsepsiyasi ilk bor shakllana boshlagan. Bu davrda asosan mediata’lim vositalari, sistemali o‘qitish va kompyuter asosida ta’lim nazariy jihatdan tadqiq qilingan. 1980-yillarga kelib esa pedagogik texnologiyalar amaliy rivojlanish va keng qo‘llanish bosqichiga kirdi: ta’lim jarayonida metodlar, modullar, kompyuter dasturlari va innovatsion usullar faol ishlatila boshladi.pedagogik texnologiyalar 1980 yillarda AQShda yaratila boshladi. Hozirgi kunda ular asosan dars, ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarga tatbiq qilishga mo‘ljallangan. Ammo bolalarning yoshlarini (6-7 yosh), ularning psixologiyalarini o‘rganadigan materialni qabul qilish darajalarini

©Begmatova Nodira Xakimovna

va hokazolarni hisobga olganda, oliy va o‘rta maxsus ta’lim uchun mo‘ljallangan pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim jarayoniga to‘g‘ridan to‘g‘ri tatbiq etib bo‘lmaydi.

Dissertatsiyalar himoya qilish borasida ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari e’tibordan chetda qolmoqda. masalan, Rossiyada 1998 - 2009 yil oralig‘ida oliy o‘quv yurtlari, kollejlar, maktablarning ta’lim jarayoniga tegishli jami 82 ta dissertatsiya himoya etilgan bo‘lib, bularning orasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun dissertatsiyalar uchramadi.

Yechim: maktabgacha ta’lim tashkilotilari uchun multimediaga asoslangan yangi texnologiya ishlab chiqish va uni shakllantirish zarur. Maktabgacha ta’lim tashkilotilarda tatbiq etiladigan multimediaga asoslangan yangi texnologiya kam, ammo uni yaratish va shakllantirish davr talabi hisoblanadi.

Navbatdagi muammo: multimedia texnologiyasi asosida yaratilajak yangi texnologiya metodikasi quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalariga o‘rgatiladigan materialni qanday usul bilan o‘rgatish kerak?
- mashg‘ulotni qanday tarzda o‘tkazish kerak?
- o‘rgatiladigan materialni hajmi va murakkablik darajasi qanday bo‘lishi kerak?
- shakli, metodi, mazmuni qanday bo‘lishi kerak?
- qanday didaktik vositalardan foydalanish kerak?

Ushbu muammoni hal etish borasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun multimediaga asoslangan yangi texnologiyaning ta’lim berish metodikasini ishlab chiqish zarur. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun multimediali yangi texnologiyaning tub mazmuni– bu multimediali kompyuter ta’limidir.

Jumladan:

- didaktik vositalari (slaydlar, taqdimotlar va boshqa ko‘rgazmali qurollar) kompyuterda tayyoranadi;
- bilim materiallarini bolalarga o‘rgatish ham kompyuterlardan foydalanib amalga oshiriladi.

Shunday ekan, yosh bolalarga kompyuterni o‘rgatish metodikasini yaratish zarur.

O‘zbekistonda kompyuterlardan ta’lim jarayonida foydalanish 1985-1990 yillardan boshlangan. Jumladan, professor A.A.Abduqodirov kompyuter texnologiyalarini oliy ta’limga tatbiq etish bo‘yicha, G‘.Haitov maktab ta’limiga tatbiq etish bo‘yicha, kollejlarda tatbiq etish bo‘yicha N.Qayumova ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Ammo maktabgacha ta’limda foydalanish yana hammaning e’tiboridan chetda qolgan. Shuning uchun maktabgacha ta’limga tegishli kompyuterlardan foydalanish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy – tadqiqot ishi dolzarb ishlardan hisoblanadi.

Navbatdagi muammolardan biri maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasini amalga oshiruvchi tarbiyachi-pedagoglarni kompyuter savodxonliklari darajasini oshirish, multimedia to‘g‘risida har tomonlama keng va to‘la ma’lumotga ega bo‘lishlari, multimedia texnologiyasini ta’lim-tarbiya jaraёniga qo‘llash metodikasini o‘zlashtirib olishlari uchun ularga metodik tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ko‘pgina tarbiyachilari oliy ma’lumotga ega emaslar, shuning uchun multimediali kompyuter ta’limi bo‘yicha masofali ta’lim tizimi yoki malaka oshirish institutlari orqali malakalarini oshirib borish maqsadga muofiq bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotilarda multimedia texnologiyasiga asoslangan ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun, maktabgacha ta’lim tashkilotilarini multimedianing asosiy texnik vositasi bo‘lgan kompyuterlar bilan ta’minlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim jarayoniga tadbiq etiladigan multimedia texnologiyasi odatdagi an’anaviy metodlarga nisbatan ma’lum bir afzalliklarga ega:

(cc) BY ©Begmatova Nodira Xakimovna

- bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stiradi;
- bola bir vaqtning o‘zida ham ko‘radi ham eshitadi (miyaning o‘ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko‘rsatadi);
- an’anaviy usullarga nisbatan bolalarga o‘rgatiladigan materialning hajmi ortadi;
- mashg‘ulotlarning samaradorligi taxminan 1,5-2 marta ortadi;
- maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarining kompyuter savodxonliklarini shakllantirishga yordam beradi;
- bolalarning mashg‘ulotda toliqib qolmasliklari uchun, didaktik materiallarni animatsiyalar orqali uzatish imkoniyati mavjud;
- o‘rganilayotgan materiallarni kichik qismlarga ajratgan holda (yoki bo‘lib-bo‘lib) namoyish etish yoki qayta namoyish etish mumkin.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

maktabgacha ta’lim –uzluksiz ta’limning birinchi pog‘onasi bo‘lgani uchun uni uzluksiz ta’lim tizimida boshqa ta’lim turlari bilan uzviyligini ta’minlash;

maktabgacha ta’limga tegishli o‘ziga xos va mos multimedia texnologiyasidan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va ularning metodikasini shakllantirish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash;

bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan meyorlarga qat’iy rioya qilish;

oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilarini maktabgacha ta’lim tashkilotida axborot texnologiyalarini, jumladan, multimedia texnologiyasini o‘quv-tarbiya jaraёniga tadbiq etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga ko‘proq jalb etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-2707-son qarori. - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son.
3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Qarshi: “Nasaf”, 2011. – B.163.
4. Begmatova N.X Multimedia texnologiyasining rivojlanish tendensiyasi, Monografiya.Qarshi, Nasaf.NMIU,2021 232 b.
5. Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayoniga multimediaga asoslangan kompyuter o‘yinlarini qo‘llash // Zamonaviy ta’lim jurnali – T.: 2022. - № 3. – B. 11-12
6. Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2016.
10. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

©Begmatova Nodira Xakimovna